

# "O'zkimyosanoat" AJ va "O'zkimyoimpeks" MCHJ xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi Qozog'istonning "MCQ Company KZ" vakillari bilan uchrashdi

// 09.10.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-o-zkimyoimpeks-mchj-xotin-qizlar-va-erk>



"O'zkimyosanoat" AJ va "O'zkimyoimpeks" MCHJ xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi Qozog'istonning "MCQ Company KZ" vakillari bilan uchrashdi.

"O'zkimyosanoat" AJ markaziy apparatida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun

teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida" gi Qonuni hamda Oliy Majlis Senatining 2022-yil 28-dekabrdagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashi tashkil etilgan.



Aktau shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda kengash a'zolari hamda "MCQ Company KZ" kompaniyasi vakillari joriy yilning 4-iyul kuni imzolangan memorandum doirasida sohada faoliyat yuritayotgan ayollarning huquq-manfaatlarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash, ayollarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshirishda hamkorlik masalalarini muhokama qilishdi.

Shuningdek, tomonlar oilalarni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshirish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida bilim va tadqiqot natijalari bilan o'zaro axborot almashish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, milliy va mahalliy miqyosda ayollar salohiyatini mustahkamlash masalalariga to'xtalib o'tdi.



uzkimyosanoat

uzkimyosanoat.uz

(+99878) 140-74-26

Ta'kidlash joiz, bunday hamkorlik O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaida do'stona munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**